



Muxammadjonova Muxlisa Maxmudjon qizi,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi
e-mail: pedagog9603@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda foydalaniladigan innovatsion metodlarning umumiy tahlili yoritiladi. Boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning nutqini o'stirishda xorijiy mamlakatlarda qo'llanadigan innovatsion uslubiy vositalar hamda ularning qiyosiy tahlili keltirilgan. Bugungi kunda o'quvchilar bilan ishlashda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli innovatsion metodlardan foydalanib dars mashg'ulotlarini olib borishning zamonaviy tendensiyalari yoritib berilgan.

Аннотация. В статье содержится общий анализ инновационных методов, используемых для развития речи учащихся младших классов. Проведены инновационные методические средства, используемые в зарубежных странах для развития речи учащихся младшего школьного возраста, и их сравнительный анализ. Сегодня в работе с учащимися выделяются современные тенденции проведения уроков с использованием различных инновационных методов с учетом возрастных особенностей учащихся младшего школьного возраста.

Annotation. The article contains a general analysis of innovative methods used to develop the speech of primary school students. Innovative methodological tools used in foreign countries for the development of speech of primary school children and their comparative analysis were carried out. Today, in working with students, modern trends in conducting lessons using various innovative methods, taking into account the age characteristics of primary school students, stand out.

Tayanch so'zlar: strategik pozitsiya, kognitiv faoliyat, ehtiyoj va bilim, ta'lim effektivligi, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar, ko'rgazmali texnologiyalar, Jigsaw reading.

Ключевые слова: стратегическая позиция, познавательная деятельность, потребность и знания, эффективность образования, инновационные методы, педагогические технологии, визуальные технологии, чтение-головоломка.

Key words: strategic position, cognitive activity, need and knowledge, educational effectiveness, innovative methods, pedagogical technologies, visual technologies, Jigsaw reading.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar maktab ta'limi tizimini ham keng miqyosda isloh qilishni, maktablarda o'quv adabiyotlar, darsliklar, uslubiy qo'llanmalar va metodikalarni qayta ko'rib chiqishni hamda dunyo mamlakatlarida qo'llanayotgan samarador tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni asosiy masala qilib qo'ydi. Yaqin besh yillikda maktab ta'limi tizimida amalga oshirilgan o'zgarishlar hamda ta'lim davomiyligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar o'quvchilarga boshlang'ich sinflardanoq sifatli va yaxshi bilim olish imkonini yaratib bermoqda. Biroq hali oldinda turgan ko'plab masalalarni hal qilish uchun vaqt talab etiladi. Jumladan, maktab darsliklari Finlyandiya maktab darsliklari tajribasi asosida qayta ishlab chiqilmoqda.

Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ushbu fin darsliklarini o'qitish uchun, albatta, yangi va innovatsion, interfaol metodlar va uslubiy yo'nalishlardan foydalanish ushbu ta'lim sifatini yanada oshiradi. O'z-o'zidan fin ta'lim tajribasi ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars beruvchi o'qituvchilarning innovatsion metodlardan foydalanishini shart qilib qo'yadi.

Maqsad va uni asoslash. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" kabi yo'nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Hozirgi bosqichda maktabning eng muhim vazifasi – o'quvchilarda bilimni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni va kognitiv munosabatlarga mos ravishda u bilan harakat qilish usullarini shakllantirishdir. Inson va jamiyat uchun zarur bo'lgan bilimlar miqdori tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy sharoitda o'quvchilar endi faqat ma'lum miqdordagi bilimlarni o'zlashtirishi bilan cheklanib bo'lmaydi. O'quvchilarda ularning bilimlarini to'ldirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni rivojlantirish juda ham muhim. Bu vazifani hal qilishning shartlaridan biri jamiyatdagi har bir shaxs nutqining rivojlanganligidir. Tilni o'zlashtirish insonning kognitiv faoliyatida muhim rol o'ynaydi. O'quvchi yetarlicha til tayyorgarligisiz, nutqiy malakasiz barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtira olmaydi. Tilni o'rganishning amaliy tomoni, ayniqsa, alohida masala: o'quvchilarda kattalar nutqini idrok etish va tushunish, to'liq, matnni yetarlicha tez va ongli o'qish nafaqat baland

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" kabi yo'nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi.

*Maqolada
umumlashtirish,
qiyoslash, tahliliy
jihatdan o'rganish,
kuzatish va sintez
metodlaridan
unumli
foydalanilgan.
Shuningdek,
tadqiqot ishida
pedagogik va
ayni sohada ilmiy
tadqiqotlar olib
borgan chet ellik
olimlar fikrlari va
xulosalaridan keng
foydalanilgan.
Mavzu doirasida
bildirgan fikrlari
tahlil qilingan.*

ovozda, balki jimgina, shuningdek, nutq va yozish orqali, ya'ni og'zaki va o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini yozma ravishda ifodalash qobiliyatlarini shakllantirish zarurdir.

Material va metodlar. Maqolada umumlashtirish, qiyoslash, tahliliy jihatdan o'rganish, kuzatish va sintez metodlaridan unumli foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqot ishida pedagogik va ayni sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan chet ellik olimlar fikrlari va xulosalaridan keng foydalanilgan. Mavzu doirasida bildirgan fikrlari tahlil qilingan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ta'limdagi innovatsion metodlar tushunchasiga chet el manbalarida quyidagicha ta'rif beriladi: "Ta'limdagi innovatsiyalar tushunchasi ta'lim innovatsiyasi tushunchasiga qaraganda kengroq ma'noga ega. Uning ta'rifi ta'lim, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ma'muriy va boshqa innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq ta'lim innovatsiyasi oldingi foydalanilgan amaliyotlardan farq qiladigan ta'lim faoliyatidagi usullar yoki tartiblar sifatida tushuniladi va uning maqsadi o'quvchilar bilan ishlash muhitida ta'lim samaradorligini oshirishdir"¹.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar nutqini rivojlantirish samaradorligi zamonaviy sharoitlarda jadal rivojlanayotgan texnik yangiliklardan foydalanish bilan sezilarli darajada oshganini ko'rishimiz mumkin. Innovatsion usullar ham murakkab tuzilishga ega. Turli ilmiy tadqiqotchilar boshlang'ich maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda o'qituvchi mashg'ulotlarni texnologik vositalar yordamida olib borish muhimligini ta'kidlaydilar.

Ta'limning strategik pozitsiyalarini amalga oshirishning asosiy elementi ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'lib, bu uning samarador mazmunni ishlab chiqish zaruriyatiga olib keladi. Yuqori muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi, ta'lim sifatini oshiradi va o'quv jarayonini boshqarishga yuqori hissa qo'shadi².

Ba'zi o'quvchilar qisqa va cho'ziq tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda, unli va undosh harflarni ajratishda qiynaladi. Buning sababi darslarda tovush-harf tahlili ustida yetarlicha ishlamaslik, savod o'rgatish davrida eshitish va amaliy xarakterdagi turli xil mashqlardan

¹ Dayang Rafidah Syariff M. Fuad, Khalip Musa & Hamidah Yusof. Innovation in Education. Sultan Idris Educational University, Journal of Educational Research and Indigenous Studies Volume: 2 (1), 2020. – pp. 2.

² Измайлова Р.Г., Т. Шейнова Г., Тимохина Т.В. Инновационные технологии в развитии речи дошкольников и младших школьников. Перспективы Науки и Образования. Международный электронный научный журнал ISSN 2307-2334 (Онлайн), Адрес выпуска: pnojurnal.wordpress.com/archive20/20-01/ Дата публикации: 29.02.2020. – С.101.

foydalanmaslikdir. Vaziyatga qarab qisqa va cho'ziq talaffuz qilinadigan unlilarni yozish uchun o'quvchilar bunday tovushlarni eshitib, farqlashi lozim. Aytilishida va yozilishida farqlanuvchi undoshlarni topish malakasini mustahkamlash uchun birinchi darsdanoq o'qituvchi o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri tahlil qilish, qisqa talaffuz qilinadigan unli va undosh tovush-harflarni farqlashi ustida ko'proq ish olib borish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish yuzasidan olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog'lanishli jummalarni noto'g'ri yoki noo'rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o'qish darslarida amalga oshirilayotgan o'quvchilarda nutq o'stirish borasidagi harakatlarning darslarda innovatsion metodlarga oid mashqlar bilan uzviy bog'lab olib borilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarga dars o'tish jarayonida ularning diqqat-e'tiborini to'liq mashg'ulotlarga jalb qilish va har bir o'quvchining mashg'ulotlar davomida to'liq ishtirokini ta'minlash, olib borilayotgan mashg'ulotning barcha o'quvchiga birdek ta'sir ko'rsatishini ta'minlash, ta'limning effektivligini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Birinchi navbatda shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarda nutqni o'stirish uchun bir nechta talablarga rioya qilish kerak. O'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun: o'quvchi nutqining yuzaga chiqishi uchun tashqi jihatdan qandaydir talab bo'lishi kerak. Ekspressiv nutqni o'stirishning uslubiy talabi o'quvchilar o'z fikrlarini, og'zaki yoki yozma bayonotlarga bo'lgan istaklarini, muloqot qilish zarurligini taqozo qiladigan vaziyatlarni yaratishdir. Har qanday nutq mazmunli xususiyatga ega bo'lishi kerak. O'quvchilarga berilayotgan material qanchalik to'liq, boy va qimmatli bo'lsa, o'quvchilarning uni bayon qilishi shunchalik mazmunli bo'ladi. Ifodalanayotgan fikr o'quvchi tushunadigan so'zlar, so'z birikmalari, gap tuzilmalari, nutq shakllari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Demak, nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirishning yana bir sharti o'quvchilarni kerakli til vositalari bilan jihozlashdir.

Bolaning og'zaki nutq qobiliyatlari ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun bolalarning nutq faolligi, muloqot qilish, o'z fikrlarini ifodalashi uchun yetarli sharoit yaratish juda muhimdir.

Soha mutaxassislarining fikricha, o'quvchilarning nutqini o'stirishda nutqning turli xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

O'quvchilarga dars o'tish jarayonida ularning diqqat-e'tiborini to'liq mashg'ulotlarga jalb qilish va har bir o'quvchining mashg'ulotlar davomida to'liq ishtirokini ta'minlash, olib borilayotgan mashg'ulotning barcha o'quvchiga birdek ta'sir ko'rsatishini ta'minlash, ta'limning effektivligini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

***Boshlang'ich
sinf o'quvchilari
nutqini
rivojlantirishning
tizimli
yo'naltirilgan
texnologiyalari
orasida materialni
mavzuning alohida
o'zaro bog'langan
segmentlariga
ajratishga
qaratilgan
modulli, bo'limli,
bosqichma-
bosqich va boshqa
usullarini ajratib
ko'rsatish mumkin.***

1. Nutqning mazmuni. O'quvchining hikoyasi, agar u faktlarni bilish, kuzatishlar asosida qurilgan bo'lsa, o'ylangan fikrlar va samimiy tajribalarni bildirsa, yaxshi, qiziqarli, o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham foydali bo'ladi.

2. Nutq qurilishining mantiqiyliigi, izchilligi, ravshanligi. O'quvchi nima haqida gapirayotganini yaxshi bilish unga muhim narsani o'tkazib yubormaslikka, mantiqiy ravishda bir qismdan ikkinchisiga o'tmaslikka, bir narsani bir necha marta takrorlamaslikka yordam beradi.

3. Nutqning aniqligi. Nutqning to'g'riligi deganda so'zlayotgan o'quvchining nafaqat faktlar, kuzatishlar va his-tuyg'ularni haqiqatga mos ravishda yetkazish, balki buning uchun eng yaxshi lingvistik vositalarni tanlash qobiliyati tushuniladi. Aniqlik lingvistik vositalarning boyligini, ularning xilma-xilligini, aytilayotgan hikoyaning mazmuniga eng mos keladigan turli holatlarda sinonim so'zlarni tanlash qobiliyatini talab qiladi.

4. Nutqning ifodaliligi – fikrni aniq, ishonarli va ixcham bayon eta olish, intonatsiya, fakt tanlash, ibora qurish, so'z tanlash, hikoya kayfiyati bilan odamlarga ta'sir o'tkazish qobiliyatidir.

5. Nutqning aniqligi – u murojaat qilingan odamlar uchun ochiqlikdir. Haddan tashqari yuklangan atamalar nutqqa zarar etkazadi.

6. Nutqning talaffuz tomoni: yaxshi diksiya, tovushlarni aniq talaffuz qilish, orfoepiya qoidalariga rioya qilish – adabiy tilning talaffuz me'yorlariga rioya qilish, ifodali, yetarlicha baland ovozda gapirish va o'qish, intonatsiya, pauzalar, mantiqiy urg'ularni o'zlashtirish.

O'quvchilar nutqini yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda o'stirishda qo'llanadigan innovatsion metodlar ularning xususiyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirishning barcha innovatsion texnologiyalari 2009–2019-yillardagi ilmiy tadqiqot ishlarida turli olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Shartli ravishda ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin

- tizimli yo'naltirilgan;
- texnologiyaga yo'naltirilgan;
- salomatlikni saqlashga qaratilgan;
- tuzatishga qaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning tizimli yo'naltirilgan texnologiyalari orasida materialni mavzuning alohida o'zaro bog'langan segmentlariga ajratishga qaratilgan modulli, bo'limli, bosqichma-bosqich va boshqa usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. O'qitiladigan material mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan bo'limlarga bo'linadi, ularning har birida aniq vazifalar to'plami belgilangan bo'ladi,

tushuntirishlar, qo‘shimcha materiallar va boshqa segmentlar taqdim etiladi. Har bir segmentni o‘rganish yakuniga yetgach, oxirida an‘anaviy ravishda o‘quvchilar o‘rtasida test o‘tkaziladi³.

Bu turlar orasida bolalar nutqini o‘stirishga yordam beradigan eng muhimi texnologiyaga yo‘naltirilgan turdagi innovatsion metodlar bo‘lib, bu **ko‘rgazmali texnologik vositalardan foydalanish**dir. O‘quvchilarga mashg‘ulotlar davomida darsliklarni to‘ldirish uchun audio-vizual materiallarni qo‘shing. Bu modellar, lentalar, filmlar, rasmlar, infografika yoki boshqa aqlni xaritalash va miya xaritasi vositalari bo‘lishi mumkin. Bunday vositalar ularning tasavvurini rivojlantirishga va o‘shishiga yordam beradi. Ushbu usullar nafaqat tinglash qobiliyatini rivojlantiradi, balki tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Agar o‘qituvchi texnologiyani yaxshi bilsa, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun ajoyib slayd-shou yoki prezentatsiyalar yaratishda foydalanish mumkin bo‘lgan bir qator aqlli ilovalar ham mavjud.

Ijodkorlikni rag‘batlantirish uchun turli vositalardan foydalanish o‘quvchilardagi yosh ongni hayajonga soladigan va ularning qiziqishini uyg‘otadigan o‘yinlar yoki vizual mashqlar shakllarda bo‘lishi mumkin. Bu har bir yosh o‘quvchining ijodiy qobiliyatini aniqlash va ijodiy hissalarini rag‘batlantirish uchun vaqt sinovidan o‘tgan usuldir⁴.

Jamoadi ishlash, raqamli vositalar va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini qo‘llash – loyihaga asoslangan ta‘limning asosiy komponentlari. Ushbu strategiya o‘quvchilarning ta‘limdagi faolligini yaxshilaydi, o‘rganishni kuchaytiradi va o‘quvchilarga o‘rganishdan zavq va qoniqishni oshirishi mumkin bo‘lgan turli usullarda texnologiyadan foydalanishga imkon beradi. Ushbu usul bilan o‘qitish o‘quvchilar va maktablarni o‘z jamoalari va tashqi dunyo bilan bog‘laydi, barcha fanlar bir-biri bilan qanday bog‘langanini ko‘rsatadi, uydirma misollar emas, balki real vaziyatlarda o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratadi. Guruhlarda ishlashning ta‘siri juda xilma-xil bo‘lishi mumkin va uning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilar o‘rtasidagi suhbat va o‘zaro ta‘sirga yordam beradigan yaxshi tuzilgan vazifalarga e‘tibor qaratishlari kerak. “Raqobatbardosh” hamkorlikda o‘rganish tushunchasi (bu yerda

***Ijodkorlikni
rag‘batlantirish
uchun turli
vositalardan
foydalanish
o‘quvchilardagi
yosh ongni
hayajonga
soladigan va
ularning qiziqishini
uyg‘otadigan
o‘yinlar yoki
vizual mashqlar
shakllarda bo‘lishi
mumkin.***

³ Измайлова Р.Г., Шейнова Т.Г., Тимохина Т.В. Инновационные технологии в развитии речи дошкольников и младших школьников. Перспективы Науки и Образования. Международный электронный научный журнал ISSN 2307-2334 (Онлайн), Адрес выпуска: pnojurnal.wordpress.com/archive20/20-01/ Дата публикации: 29.02.2020. – С.100.

⁴ Official site of “edsys”. 23 Innovative Ideas to Make Your Teaching Methods More Effective. February 22, 2023. Available at: URL: <https://www.edsys.in/innovative-ideas-make-teaching-methods-effective/>

*Har bir juftlik
bir-biriga o'qigan
hikoyasini
so'zlab beradi.
Ish yakunida
har bir juftlikda
to'liq hikoya
paydo bo'ladi.
O'quvchilar
hikoyani eslab
qolishlari uchun
ayrim qaydlarni
amalga oshirishlari
mumkin. O'yin
so'ngida mavzuni
mustahkamlash
uchun savol-javob
qo'llash ham
mumkin.*

o'quvchilar guruhlari bir-biri bilan raqobatlashadi) ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan, ammo agar o'quvchilar o'rganishga emas, balki raqobatga ko'proq e'tibor qaratishsa, bu holatlarda o'qituvchiga vaziyatni nazorat qilishda ehtiyotkor bo'lish tavsiya etiladi.⁵

“Jigsaw reading” metodi o'quvchilarning o'qish, muloqot va xulosa chiqarish qobiliyati kabi kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ayniqsa, qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishlashda bu usul juda samarali hisoblanadi. U quyidagicha amalga oshiriladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruhga hikoyaning ikkinchi qismi beriladi. O'quvchilar o'zlariga berilgan hikoyaning qismini o'qib yaxshilab eslab qolishlari kerak bo'ladi. So'ng har bir o'quvchiga narigi guruhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir-biriga o'qigan hikoyasini so'zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to'liq hikoya paydo bo'ladi. O'quvchilar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O'yin so'ngida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo'llash ham mumkin. Matn ustida ishlashning bu turini boshqacha ko'rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruh o'quvchilariga matn undagi so'z yoki jumlar o'chirilgan holda beriladi. Ikkinchi guruh a'zolariga butunlay boshqa so'z va jumlar o'chirilgan holda beriladi. Har ikki guruh a'zolari savol berish yo'li bilan o'z matnini to'ldirib olishi kerak⁶.

Ochiq savollar berish metodi. Boshqa bir usul o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish maqsadida o'qituvchilar ochiq savollarni berish orqali sinfda jonli munozaralarni rag'batlantirishlari kerak. O'quvchilar o'zlarining bilimlari asosida birlashtiruvchi elementlarni birlashtirishlari, shuningdek, yechimni birlashtirish uchun ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin, keyin ular dalillar yordamida qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Bu o'quvchilarga nafaqat o'z ovozi topishga, balki o'z fikrlarini ifoda etishga va o'z fikrlarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

So'rovga asoslangan ta'lim metodi. So'rovga asoslangan o'rganish o'quvchidan nimani o'rganishni xohlashini so'rashdan ko'ra ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Asosiy maqsad o'quvchilarni materialga jalb

⁵ Official site of Education advanced. Kim McMullen. Innovative Teaching Strategies: Nine Techniques for Success. May 24th, 2022. Available at: <https://educationadvanced.com/resources/blog/innovative-teaching-strategies-nine-techniques-for-success/>

⁶ Yadgarova O.I. Bo'lajak o'qituvchilarning professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali metod va vositalari // Science and innovation international scientific journal Volume 1 ISSUE 7, UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 2022. –B. 1071.

qilish uchun qiziqish uyg'otishdir. Biroq o'quvchining qiziqishini uyg'otish ularga shunchaki axborotlarni yetkazishdan ko'ra muhimroq va qiyinroq vazifadir. Murakkabligiga qaramay, ushbu strategiya o'qituvchilar uchun osonroq bo'lishi mumkin, chunki u ba'zi vazifalarni o'qituvchilardan o'quvchilarga o'tkazadi va o'quvchilarga material bilan shug'ullanish imkonini beradi. So'rovga asoslangan ta'lim o'quvchidan faktlarni eslab qolishdan farqli o'laroq masalalarni mustaqil o'rganish imkonini berib, o'quv jarayonini boyitadi. O'quvchilarning kognitiv iste'dodini kundalik hayot bilan bog'lashda va barcha fanlarni yaxshi tushunish uchun foydalanish mumkin. Bu metod orqali o'quvchilarga o'rganayotgan narsasi bo'yicha o'z fikrlarini shakllantirish erkinligini beradi, bu ularga ma'lumotlarni eslab qolishdan ko'ra mavzu bo'yicha ko'proq bilimlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Boshqa bir olimlar fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining nutqini o'stirishda quyidagi innovatsion metodlarni samarali deya baholashadi. Ushbu muammolarni hal qilish nutqni rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanishga yordam beradi:

1. Muammoli ta'lim.
2. O'yin texnologiyalari.
3. Kompyuter texnologiyalari.
4. Loyiha usuli.

Muammoli ta'lim bolalarning eksperimental va o'ylash faoliyatida nutqni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalar bilan ishlashda turli og'zaki didaktik o'yinlarda muammoli nutqiy vaziyatlardan foydalanish (bolaning kattalar o'rnini egallab, o'zi xulosa chiqarishga harakat qiladigan vaziyatlar).

“Dunyoga birovning ko'zi bilan qarang”.

“Boshqa qahramon nomidan hikoya yozing”.

“Ushbu yakundan foydalanib, hikoya yarating”.

“Obyekt nechta ma'noga ega?”

“Obyektning iloji boricha ko'proq xususiyatlarini nomlang” va boshqalar.

O'yin texnologiyalari. O'yin – bolaning qiziqishlari va imkoniyatlarini yuqori darajaga, ya'ni fikrlovchi, ijodiy shaxs darajasiga olib chiqadigan muloqot va hamkorlikning maxsus shakli.

Darslarda mashqlarning turli o'yin shakllaridan, kulgili hikoyalardan, chizmalardan foydalanish, ular yordamida o'quvchilarni ma'lum o'yin vaziyati bilan tanishtirish, krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar va intellektual o'yinlar ham nutqni rivojlantirish uchun bir xil darajada muhimdir.

O'quvchilarning kognitiv iste'dodini kundalik hayot bilan bog'lashda va barcha fanlarni yaxshi tushunish uchun foydalanish mumkin. Bu metod orqali o'quvchilarga o'rganayotgan narsasi bo'yicha o'z fikrlarini shakllantirish erkinligini beradi, bu ularga ma'lumotlarni eslab qolishdan ko'ra mavzu bo'yicha ko'proq bilimlarni rivojlantirishga imkon beradi.

***Turk
tadqiqotchilari
Ceren Duran,
Emel Güvey
Aktay, Oğuzhan
Kurular o'z
tadqiqot ishlarida
Turkiyada
boshlang'ich sinf
o'quvchilarining
nutqini
rivojlantirishda
ular ko'radigan
multfilmlarning
ahamiyati juda
ham katta
ekanligini qayd
etishgan.***

Kompyuter texnologiyalari bir qator afzalliklarga ega bo'lgani uchun nutqni rivojlantirishda juda ham muhimdir:

– kompyuter ekranida axborotni taqdim etish bolalarda qiziqish va ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ekranida nutqni rivojlantirish uchun rasmlar yoki hikoya rasmlari taqdim etilishi mumkin.

AKTdan foydalangan holda izchil nutqni rivojlantirish imkoniyatlari:

- so'zlardan, rasmdan, sxemadan, mos so'zlardan gaplar tuzish;
- matn, masala yuzasidan hikoya tuzish;
- berilgan boshlanish, rasm va kalit so'zlar asosida hikoya tuzish;
- berilgan matn, rasmlar va kalit so'zlar asosida hikoyaning boshlanishini o'ylab topish.

Loyiha usuli. Ushbu usul nafaqat maktab o'quvchilari orasida ijodiy fikrlash, mustaqillik va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga, balki nutqni rivojlantirishga ham hissa qo'shadi, ya'ni o'quvchilarda o'quv jarayonida samarali ijtimoiy va intellektual o'zaro ta'sirlar asosini tashkil etuvchi bir qator kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi, ularga quyidagilar kiradi:

- so'rash qobiliyati (boshqa o'quvchilarning nuqtayi nazarini bilish, ma'lumot yoki harakat usullari "taqchilligi" sharoitida o'qituvchiga so'rov yuborish);
- ovozni boshqarish qobiliyati (aniq gapirish, vaziyatga qarab ovoz balandligini hamma eshita oladigan tarzda sozlash);
- o'z nuqtayi nazarini ifoda etish qobiliyati (har kim o'z fikrini shakllantirishi va uni aql bilan isbotlashi aniq);
- muzokaralar olib borish qobiliyati (do'stona muhitda eng to'g'ri, oqilona, o'ziga xos yechimni, mulohazalarni tanlash)⁷.

Shu o'rinda yana bir yangi va o'ziga xos bir fikrni qayd etish maqsadga muvofiq. Turk tadqiqotchilari Ceren Duran, Emel Güvey Aktay, Oğuzhan Kurular o'z tadqiqot ishlarida Turkiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda ular ko'radigan multfilmlarning ahamiyati juda ham katta ekanligini qayd etishgan. Jumladan, ularning yozishicha, o'quvchilarga multfilmlar orqali o'z fikrlarini ifodalashda, ya'ni multfilmni ko'rib bo'lgach, ularga multfilm haqidagi qarashlari, voqealar, obrazlar haqida savol berilganda o'quvchilar jilmayish va qo'llarini cho'ntagiga solib gapirish, qizarish, chayqalish, lab tishlash, ko'z, oyoq va bosh irg'ash, barmoq bilan aytilgan narsaga ergashish kabi jismoniy xususiyatlar o'lchamida boshqarilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarini ko'rsatdi. Tadqiqot natijasida o'quvchilarning tasavvuri

⁷ Соколова Т.Н. Школа развития речи Т.Н.: Курс «Речь»: методическое пособие. – Москва: Издательство РОСТ, 2013. – С. 49.

va ijodkorligi oshgani, tafsilotlarga ko'proq e'tibor qaratgani, kuzatish qobiliyati mustahkamlangani aniqlandi.

Multfilmlar orqali gapirish mavzusi ikki toifaga bo'linadi: multfilmlar mazmunini gapirish va multfilmlar orqali faoliyat jarayonini ko'rsatish. O'quvchilar multfilmlar mazmuni haqida ijobiy fikrlarini bildirdilar. O'quvchilarning javoblari o'rganilganda, ularning har bir multfilmda qahramonlarga urg'u bergani ko'rindi. Bundan tashqari, ba'zi talabalar multfilmlarni qahramonlar ustida emas, balki bo'lib o'tgan voqealar va asosiy g'oya orqali tushuntirib, ularning e'tiborini tortgan jihatlar shu ekanligini ta'kidladilar.

O'quvchilarning fikr-mulohazalari haqidagi ma'lumotlar multfilmlar orqali nutq mahoratini oshirish bo'yicha tadbirlar yakunlangandan so'ng o'tkazilgan qisqa suhbatlar orqali olindi. Jarayon yakunida talabalarning nutqiy faoliyatga o'rganib qolgani ko'rinib, bunda o'quvchilarning ovoz ohanglarini yaxshiroq moslashtirgani, ovozinig eshitilishi ortib borayotgani aniqlandi. O'quvchilarning so'zlari tadqiqotdan oldingi vaqtga qaraganda ancha tushunarli bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mashg'ulotlarda bimalol suhbatlashgan. Xuddi shunday, kontseptual multfilmlardan foydalangan holda dars olib borish ko'p sinflarda boshlang'ich maktabning 1- va 2-sinf o'quvchilarining o'qish va nutq ko'nikmalarini oshirdi⁸.

Yakuniy qism. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda yuqoridagi kabi yangi va o'ziga xos innovatsion metodlardan foydalanish kelajakda har bir o'quvchining intellektual imkoniyatlarini oshirib, sifatli kadrlar zaxirasi shakllanishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratadi. O'quvchilarning nutqini o'stirishda multfilmlardan foydalanish ham o'ziga xos metod sifatida mutaxassislar tomonidan qo'llanishi ma'qullanadigan qimmatli tajribadir.

Umuman olganda, dars mashg'ulotlarini olib borishda an'anaviy dars metodlaridan foydalanish ham qo'l kelishi mumkin, biroq yangi va innovatsion metodlardan foydalanish samaradorlikni va effektivlikni yanada oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning imkoniyat darajasi reytingida mos keladigan innovatsion metodlarni tanlay olish ham o'qituvchi-pedagogning mahoratidan darak beradi. O'quvchilarning nutqini o'stirishda yuqoridagi kabi samarador chet el tajribasi mahsullarini qo'llash va ularni milliy ta'lim

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda yuqoridagi kabi yangi va o'ziga xos innovatsion metodlardan foydalanish kelajakda har bir o'quvchining intellektual imkoniyatlarini oshirib, sifatli kadrlar zaxirasi shakllanishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratadi.

⁸ Ceren Duran, Emel Güvey Aktay, Oğuzhan Kuru. Improving the Speaking Skill of Primary School Students Instructed in a Multigrade Class through Cartoons. Participatory Educational Research (PER), Vol. 8(4), pp. 44-63, December 2021. ISSN: 2148-6123. <http://dx.doi.org/10.17275/per.21.78.8.4> Available online at <http://www.perjournal.com>

tizimiga moslashtirgan holda qo‘llash, ularni yanada takomillashtirish va yuqori ta’lim natijalarini qayd etish bugungi kundagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Olingan tajribalarni qo‘llay bilish, ushbu metodlarning natijadorligini muntazam monitoring qilish, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini topish va shu orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini o‘stirishda mukammal tizimni shakllantira olish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dayang Rafidah Syariff M. Fuad, Khalip Musa & Hamidah Yusof. *Innovation in Education. Sultan Idris Educational University, Journal of Educational Research and Indigenous Studies Volume: 2 (1)*, 2020. – pp.11.
2. Измайлова Р.Г., Шейнова Т.Г., Тимохина Т.В. *Инновационные технологии в развитии речи дошкольников и младших школьников. Перспективы Науки и Образования. Международный электронный научный журнал ISSN 2307-2334 (Онлайн), Адрес выпуска: rnojurnal.wordpress.com/archive20/20-01/ Дата публикации: 29.02.2020. – С. 99-104.*
3. Official site of “edsys”. *23 Innovative Ideas to Make Your Teaching Methods More Effective. February 22, 2023. Available at: URL: <https://www.edsys.in/innovative-ideas-make-teaching-methods-effective/>*
4. Official site of Education advanced. Kim McMullen. *Innovative Teaching Strategies: Nine Techniques for Success. May 24th, 2022. Availabel at: <https://educationadvanced.com/resources/blog/innovative-teaching-strategies-nine-techniques-for-success/>*
5. Yadgarova O.I. *Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali metod va vositalari // Science and innovation international scientific journal. Volume 1 ISSUE 7, UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. 2022. B. 1070-1074.*
6. Соколова Т.Н. *Школа развития речи Т.Н.: Курс «Речь»: методическое пособие. – Москва: Издательство РОСТ, 2013.*
7. Ceren Duran, Emel Güvey Aktay, Oğuzhan Kuru. *Improving the Speaking Skill of Primary School Students Instructed in a Multigrade Class through Cartoons. Participatory Educational Research (PER), Vol. 8(4), pp. 44-63, December 2021. ISSN: 2148-6123. <http://dx.doi.org/10.17275/per.21.78.8.4> Available online at: <http://www.perjournal.com>*